


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik)
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent -2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’limning standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4.	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	6
2	<i>60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	10
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	11
2.3.2.	<i>60811500 - Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:	11
2.3.3.	<i>60811500 - Zooinjeneriya (asalarichilik)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:.....	11
	Bibliografik ma'lumotlar.....	14
	Kelishuv varag'i.....	15

1. 60811500- Zootsiyeneriya (asalarichilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60811500 -Zootsiyeneriya (asalarichilik) Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassaslarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shakslar.

1.2. 60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60811500 – Zootsiyeneriya (asalarichilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – “Qishloq xo'jaligi” ta'lim sohasiga oid bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, u davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy, rivojlantirish istiqbollari belgilash bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar yechimlarini asalarichilikning rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar. Shuningdek yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida asalarichilik sohasidan olinadigan maxsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati uchun xom - ashyo tayyorlash, asalarilarni parvarishlash va urchitish

usullarini, naslchilik ishini olib borishni, irsiyat va o'zgaruvchanlik belgilarni nasldan-naslga berilishini, asalarilarni to'la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish va mustaxkam ozuqa bazasini yaratish, ozuqa qiyomlarini tayyorlash, bundan tashqari bu yo'nalish ona asalarini ko'paytirish, asal, mum, perga va boshqa ikkilamchi asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishlash va standartlashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, asalarichilikda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslari, asalari kasalliklari va ularni oldini olish usullari, asalarichilikda veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish, asalarichilik mahsulotlaridan tayyor mahsulotlarga aylantirish sohalariga ixtisoslashgan bakalavrlar tayyorlaydi va ularni tayyorlashning samarali metodlari va vositalari majmuini qamrab oladi, asalarilarni parvarishlash, oziqlantirish, mahuldorligini oshirish hamda sifatini yaxshilashda, kasbiy faoliyatning texnik vositalaridan oqilona foydalanish, sohani rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, davlat boshqaruv organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida asalarichilik sohasi ta'lim yo'nalishlariga mos kasbiy faoliyat yuritish.

1.2.2. 60811500 - Zoinjeneriya (asalarichilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tadbiiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari;

- yer, suv, o'simliklar olami va moddiy – texnika resurslari;

- O'zbekiston asalarichilari uyushmasi va uning xududiy bo'linmalari;

- asalarichilik bilan shug'illanayotgan barcha toifadagi xo'jaliklar;

- asalari oilasi, nasl mahsulotlari – urug', tuxum, ona asalarilar;

- asalarilarning uyasi, asbob-uskunalar va asalarichilik mahsulotlarini qayta ishlash uskunalari;

- asalarilarning zarakunandalari va kasalliklariga qarshi ishlatiladigan kimyoviy vositalar;

- asalarilarning ozuqa manbalari va ozuqa zaxirasi;

- texnik asbob uskunalari;

- qishloq xo'jaligi texnikalari;

- asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot jarayonlari va boshqaruv tizimlari.

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, chorvachilikning turli soha va tarmoqlarida boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tadbiiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy

tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

60811500 - *Zooinjeneriya (asalarichilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'illanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60811500 - *Zooinjeneriya (asalarichilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy;
- ilmiy-tadqiqot;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60811500 - *Zooinjeneriya (asalarichilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60811500 – *Zooinjeneriya (asalarichilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

-fiqorolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol xayotiy nuqtai nazarga:

-dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni xisobga olib bilish:

-xorijiytillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

-tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

-yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

-sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

-ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

-fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

-nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

-bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

-mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish;

-pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

-ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish lozim;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy asalarichilik ta'lim sohasiga oid bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizmlashtirish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha sohaga oid axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- asalarichilik sohasida yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- asalarichilik sohasida biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ixtisoslik fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

-ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohasida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

-asalarichilik asoslari fanining maqsadi asalarichilikni rivojlanish tarixi, hozirgi ahvoli va istiqbollari, asalarichilik sohasida qabul qilingan normativ-ho'quqiy ho'jjatlar, Respublikada asalarichilik subektlari va mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi. Asalarichilik sohasidan olinadigan mahsulotlar (asal, mum, propolis, o'simlik changchisi, perga, asalari suti, asalari zaxari) haqida. Asalari oilalarini parvarishlash sirlari, asalarichilik xo'jaliklarida bajariladigan mavsumiy ishlar, asalarichilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va mexanizmlar, asalarilar yordamida o'simliklarni changlatish, asalari zotlari, asalarichilikda naslchilik ishlarini olib borish, asalarilarning kasalliklari kabi bilimlarni o'rgatish.

- asalarilar biologiyasini o'rganish orqali ularni ichki va tashqi tuzilishi, asalarilarning morfologiyasi, fiziologiyasi, ona asalarilarni tuxum, erkak asalarilarni sperma, asalari oilasida polimorfizm, asalarilarning o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini, evolyustiyasi va shaxsiy taraqqiyotini boshqarish, asalarilar biologiyasiga xos oilada ko'ch chiqish sabablari to'g'risida bilimlarni o'rgatish.

-asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi va sohasi bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan asalari mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash kabi bilimlarni o'rganish bilan bir qatorda bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari jumladan asalarichilik mahsulotlarni qayta ishlash haqida hozirgi zamon texnologiyasi asosida pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holatda mahsulot ishlab chiqarish haqida bilimlar berish, fan bakalavrlarga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va asalarichilik sohasidan olinadigan mahsulotlar, asal, mum, perga, propolis, asalari zaxari, asalari suti, ona asalari va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash texnologiyasini bajarishda ilmiy asosda yondashishni shakllantirish vazifasini bajaradi.

-asalarilarning ozuqa manbalari, asalarichilikda ozuqa manbalaridan keng qamrovli foydalanish, ozuqa manbalarini o'rganish, sharbat ajratuvchi o'simliklarni aniqlash, ozuqa manbalarining maydonini kengaytirish, asalarilarning mahsuldorlik darajasi, yoshi va fiziologik holatiga qarab oziqlantirish kabi bilimlarni o'rgatish.

- asalari oilalarini parvarishlash, oziqlantirish va urchitishning ilmiy asoslangan usullarini innovatsion va intensiv texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- asalarichilik tarmog'ida naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish saqlash va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, ularning hajmi va turlarini yanada ko'paytirish, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qishloq xo'jaligi ekinlari va mevali daraxtlarni asalarilar yordamida changlatish va ularning hosildorligini oshirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish;

- asalarilarni kasalliklardan himoya qilish, asalari kasalliklarini aniqlash, ularni davolash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirish; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutiqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni taminlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ishlab chiqarish muhiti, bozor va unga xos xatarlarni, raqobot muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazefalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarini amalga oshirish uquviga ega bo'lish;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida texnologik jarayonlarini energiya va resurstejamkor innovatsion texnika va texnologiyalar asosida mexanizatsiyalashtirishda muhandislik hisoblari, algoritmlari va matematik modellarini qo'llay bilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayotiy faoliyat xavfsizligi, texnik va axborot xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringini yuritish;
- asalarichilikda ishlab chiqarish jarayonlarini, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini aqlli (smart) texnologiyalar yordamida nazorat qilish;
- respublika hamda xorijda chop etilgan asalarichilik sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- agrosanoat majmuida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish texnologiyalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita qatnashish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish;
- sohaga oid innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llashda texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va saqlanishi to'g'ri tashkil qilish hamda rejalashtirishni boshqarish bo'yicha ishlarga rahbarlik qilish borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar-bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar-ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqirlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi;

O'quv amaliyoti-talaba asalarichilik xo'jaligida asal va asalarichilik mahsulotlarini yetishtirish hamda ishlab chiqarish jarayonidagi yangiliklar bilan tanishadi va o'zlashtiradi. Asalari oilalarini parvarishlash, ularning ozuqa manbalari bilan tanishish va oziqlantirishni o'zlashtiradi. Sohada yuritiladigan mi'yoriy-xuquqiy xo'jjatlar va ishlatiladigan jixozlar, uyalar, asbob-uskunalar bilan tanishish hamda ishlatish jarayonlarini o'zlashtiradi.

Ishlab chiqarish texnologik amaliyoti -majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Bitiruv ishi oldi amaliyoti –asalarichilikda seleksiya va naslchilik ishlarini olib borish, sun'iy usulda ona asalari yetishtirish, asal va asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish. Asalarilarning zararkunandalari, asalarilarda uchraydigan kasalliklar va ularga qarshi kurash choralarida bevosita ishtirok etadi. Bitiruv malakaviy ishi uchun dastlabki ma'lumotlarni to'playdi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: zoomuhandis texnolog, asalarichi.

2.32. 60811500 - Zootinjeneriya (asalarichilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5400	180
Tanlov fanlar	1020	34
Malakaviy amaliyot	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3.60811500 - Zootinjeneriya (asalarichilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyati turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5400	180	
1.01	O'EYTB1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB1604	Falsafa	120	4	6
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2

1.05	O'T O'SQB1104	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	1
1.06	JMSB1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.07	OMTB1204	Oliy matematika	120	4	2
1.08	ANFKBKB1306	Analitik, fizkolloid va biokimyo	180	6	3
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'sim- liklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	ZOOLB1106	Zoologiya	180	6	1
1.11	QXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida axborot- kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.12	ASASB1108	Asalarichilik asoslari	240	8	1,2
1.13	ASBIOB1104	Asalarilar biologiyasi	120	4	1
1.14	ASMICHSQITB 1310	Asalarichilik mahsu- lotlarini ishlab chiqa- rish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	300	10	3,4
1.15	HMIKVIRB1310	Hayvonlar mikrobiologiyasi va virusologiyasi	300	10	3,4
1.16	O'SHB1308	O'simlikshunoslik	240	8	3,4
1.17	HGBTB1306	Hayvonlar genetikasi va biotexnologiyasi	180	6	3
1.18	ZOOGB1406	Zoogigiena	180	6	4
1.19	ASNIB1508	Asalarichilikda naslchilik ishi	240	8	5,6
1.20	ASZKB1508	Asalarilarning zararkunandalari va kasalliklari	240	8	5,6
1.21	AOPSUB1510	Asalari oilalarini parvarishlash, saqlash va urchitish	300	10	5,6
1.22	O'RCHB1506	O'rmonchilik	180	6	5
1.23	AOMOTB1710	Asalarilarning ozuqa manbalari va oziqlan- tirish texnologiyasi	300	10	7,8
1.24	AXBMIB17408	Asalarichilik xo'jalik- larida bajariladigan mavsumiy ishlar	240	8	7,8
1.25	AYO'CHB1706	Asalarilar yordamida o'simliklarni changlatish	180	6	7

1.26	VETAB1708	Veterinariya asoslari	240	8	7,8
1.27	XUSZOOB1708	Xususiy zootexniya	240	8	7.8
2.00		Tanlov fanlar	1020	34	
2.00		Tanlov fanlar	1020	34	3,4,5,6,8
		Jami:	6420	214	
	MALAMAL1222	Malakaviy amaliyot	660	22	2,4,6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami:	780	26	
		Hammasi:	7200	240	



Bibliografik ma'lumotlar

UO'K 638.1

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kredit, modul, bakalavriatning o'quv reja va o'quv dasturi, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, konsalting, asalarichilik, asalari oilasi, nasl, tuxum, ona asalari, ozuqa manbalari, oziqlantirish, asalarichilik mahsulotlari, asal, mum, perga, propolis, asalari zaxari, malaka talablari, qo'llanish sohasi, o'quv davri, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, ishlab chiqarish va malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, loyihalash, tashkiliy boshqaruv, axborot-tahliliy faoliyat, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadbirkorlik.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar istemolchilari**

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S.Ya. Islamov




2023 yil « 20 » 07
M.O.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08
M.O.



**O'zbekiston Respublikasi Veterinariya
va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi**

Birinchi o'rinbosari Sh.A. Djabborov



2023 yil « 19 » 07
M.O.

“O'zbekiston asalarichilari” uyushmasi

Rais Sh. Baxriddinov

2023 yil « 18 » 07
M.O.



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Rektor X.B. Yunusov

2023 yil « 20 » 07
M.O.



Farg'ona davlat universiteti

Rektor B.Sh. Shermuhammadov

2023 yil « 20 » 07
M.O.



**Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-
tadqiqot instituti**

Direktor A. Nurmatov

2023 yil « 17 » 07
M.O.



**Toshkent davlat agrar universiteti 60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik)
bakalavriyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarini va o'quv rejasining ishlab
chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari
o'rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“ 10.07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor S.Y.Islamov, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori X.B.Yunusov, O'zbekiston asalarichilari uyushmasi raisi Sh.Baxriddinov, birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriyat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60811500 - Zootsiyeneriya (asalarichilik) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari xamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari tugrisida”gi PD-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ulariing mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxtlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'grisida”gi PQ-279-son qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan quyilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tayyorlash mumkin.

O'zbekiston asalarichilari uyushmasi raisi



Sh. Baxriddinov

**Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektor**



X.B.Yunusov

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori**



S. Islamov